



ISAJON SULTON IJODIDA MILLIY RUH

Shahnoza Qudratova

Magistrant

A Navoiy universitetida

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14524796>

Annotatsiya:

Yozuvchi Isajon Sulton badiiy uslubining o'ziga xosligi asar qahramonlari nutqida duo, olqish, qarg'ish kabi folklorizmlarni qo'llashda, maqol va matallar, turg'un iboralar kabi oddiy; analitik, sintezlashgan va stilizatsiya xarakteridagi murakkab folklorizmlardan foydalanishda ko'rinishi asoslangani bilan bog'liq xulosalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi nasr bo'limi yig'inlarida yosh ijodkorlarga o'tilgan mahorat darslarida, shuningdek, ijodiy seminarlarda o'qilgan ma'ruzalarda foydalanilgan.

Mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Dissertatsiyaning "Folklor va yozma adabiyot munosabati masalalari" deb nomlangan birinchi bobi ikki fasldan iborat bo'lib, birinchi faslda "Folklor va yozma adabiyot munosabatlarining o'rganilishi" ga diqqat qaratilgan. Adabiyotning beshigi bo'lgan folklor asrdan asrga hayotiy vazifasini kengaytirib bordi, individual ijodda o'ziga xos poetik vazifalarni ham bajara boshladi. O'zbek folklorshunosligida folklor va yozma adabiyotning folklorizm asosidagi aloqasini tadqiq etish dastlab B.Sarimsoqov tomonidan boshlab berildi. Olim folklorizmlarni oddiy va murakkab turlarga ajratdi¹¹. Folklorizmlarning asar matnida bajaradigan badiiy vazifalari va talqinlariga doir B.Sarimsoqov ilgari surgan nazariy konsepsiya keyinchalik O.Nosirov, O.Sobirov, M.Hakimov, B.To'xliyev, I.Yormatov, L.Sharipova, G.A.Begmuratova, N.Tursunovalarning ilmiy maqolalari va dissertatsiya ishlarida¹² yanada rivojlantirildi. Folklorizmlarning Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodidagi poetik talqinlarini o'rgangan S.Hamdama yozma badiiy asarlar tarkibida keluvchi xalq og'zaki ijodi namunalarini manbalari va badiiy-estetik vazifasiga ko'ra "mifologizm" (qadimgi mifologik tasavvurlar va mifik obrazlar, asotiriy syujet va motivlarning badiiy asar matnidagi talqini), "folklorizm" (badiiy adabiyotda poetik vosita sifatida qo'llanilgan folklor elementlari) va "adabiy etnografizm" (urf-odat,



marosim, rasmrusum, xalq qarashlari va an'analarining yozma adabiyotdagi ifodasi) deb baholashni maqsadga muvofiq"13 deb bildi. Tadqiqotchi N.Toshevaning dissertatsiyasida14 Isajon Sultonning "Ozod", "Genetik" romanlaridagi folklarga oid unsurlarning o'rni kuzatilgan.

O'zbekiston Xalq yozuvchisi Isajon Sulton ijodida milliy ma'naviy merosimizni aks ettirish, folklor unsurlaridan foydalanish, folklor motivlari vositasida qiziqarli sujetlar tanlash adibning uslubiy o'ziga xosliklarini belgilaydi. Isajon Sulton hikoyalarining badiiy qurilmasi, bayon uslubida xalq ertaklari, afsonalari, rivoyatlariga xos bayonchilik, soddalik, qolaversa, ertak qahramonlariga o'xshash jabrlangan, sodda, oddiy odamlarning turmush tashvishlari, ularning o'y-xayollari o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etadi. Masalan, "Avazboylik tantilar", "Bibi Salima", "Shamolli kecha", "Bogi Eram", "Manzil", "Qish ertaklari", "Ona yurt sog'inchi", "Toshkelinchak", "Yusuf va Zulayho", "Xun", "Yog'och kovush" kabi qator hikoyalarida bu badiiy xususiyatlar yarqirab ko'rinish bergan deyish mumkin. Yozuvchining "Toshkelinchak" hikoyasi O'rta Osiyo xalqlari orasida qachonlardir bo'lib o'tgan muhabbat rivoyati haqidadir. Adib bu rivoyatning yoyilib ketishini asarda chiroyli chizgilar bilan beradi. Nazarning qishloq chetidagi ziyoratgoh sanalgan qadim tosh ustida o'z xayollari bilan band bo'lib kun o'tkazishini ta'riflar ekan: "Ziyoratgoh yonidan katta yo'l o'tgan, bir yog'i O'shdan Ergashtomga, bu yog'i Qamchiq dovoni oralab, Toshkentdan Qozog'istonning bepoyon cho'llariga qarab ketadi. Turli-tuman uzun-qisqa arobalar qatnovi bir zum bo'lsin tinmaydi", – deydi. Ushbu jumladan anglash mumkinki "Toshkelinchak" hikoyasi eski rivoyatning badiiy talqini sifatida yozma adabiyotga olib kirilgan. Hikoya sujetiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hikoyaning har bir qatiga milliy ruh, an'analar va urf-odatlardan ta'sirlangan holda mazmun singdirilgan. Hikoyada folklorizmlardan foydalanish, avvalo, yozuvchi uchun sujetlar, mavzular, motivlar manbayi sifatidagina emas, balki ijodkor estetik ideali va dunyoqarashini gavdalantiruvchi vosita sifatida ko'rinadi. Ayni paytda, yozuvchining ijodiy o'ziga xosligini ham belgilaydi. Yozuvchi ijodida folklorizmlar xalqimizning mafkurasi va hayot tarzini, ruhiyatini ochib berish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hikoyada oddiy folklorizmlar xalq maqol va matallari, yumuq iboralari, og'zaki nutq uchun xos ifoda hamda oborotlardan ham mahorat bilan foydalanilgan. Jumladan, adib Nazarning Ummugulsumga eng mos juft bo'la olishini tasvirlar ekan, xalq matal va iboralarini matnga ustalik bilan singdirib yuboradi:

"Tegirmonga tushsa butun chiqadigan, shaxt-u shiddati jismiga sig'may toshib turgan Nazarga tegmasdan kimga ham tegardi? Yo'ni yo'ndiradigan, borni bor






qiladigan bunday yigitgan qaysi qiz ham yo'q derdi?" Yoki Ummugulsumning amma xolalarining Nazarga aytgan gaplarida:

– Hoy, jon bolam, qo'ying, keting endi, – debdi xotinlarning yoshi kattarog'i.
– Nima qilasiz bechorani qiynab? Og'zidan qora qonini keltirdingiz-ku qiz sho'rlikni!") Ummugulsumning to'yida aytilgan tilaklarda ("Borgan joyingga toshday tushgin. Toshday tushgunu toshday qolgin") og'zaki nutq uchun xos ifodalar berilgan.

Ma'lumki, ijodkor uslubining shakllanishida o'zi tug'ilib o'sgan joy, o'sha xalqning urf-odatlar, oiladagi hayot tarzi, ustozlarning alohida o'rni bor. "Uslub – yozuvchining voqelik va insonni idrok qilishi, ularning qalbidagi haqiqatning kashf etishi va uni so'z vositasida obrazli ifodalay olishi – bu vazifalarni individual tarzda yaratish san'atidir."

Isajon Sulton hikoyalarining badiiy qurilmasi va uslubidagi xalq ertaklari, afsonalari, rivoyatlariga xos bayonchilik, soddalik, qolaversa, ertak qahramonlariga o'xshash jabrlangan, sodd, oddiy odamlarning turmush tashvishlari, ularning o'y-xayollari o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etadi. Masalan, "Oydinbuloq", "Avazboylik tantilar", "Bibi Salima", "Shamolli kecha", "Bog'i Eram", "Manzil", "Qish ertaklari", "Ona-yurt sog'inchi" kabi qator hikoyalarida bu badiiy xususiyatlar yarqirab ko'rinish bergan deyish mumkin.

Adib badiiyatida insoniyat va insonni anglash, uning maqsad va vazifalarini belgilash sharqona badiiy-falsafiy konsepsiyada ochib berilmoqda. Serqirra ijodkor Ulug'bek Hamdam Isajon Sulton haqida shunday degandi: "...Uning ijod yo'li anchagina o'ziga xos. Yozuvchi 90-yillarning boshlarida mo'jazgina kitobchasi - "Oydinbuloq" bilan ko'zga tashlanib, adabiy davralarni o'ziga bir qaratib olgach, hayot deb atalgan tubsiz va cheksiz teranliklarga sho'ng'ib ketgan, 2010-yilda qator hikoyalar va romanlar bilan u ummondan bosh ko'targan ijodkordir". Folklor asarlari o'zining hayotiyli ijtimoii tabiati, hamda badiiy xususiyatlari bilan adabiyotimizda o'ziga xos o'ringa ega. Xalq mehnati, urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurash va g'alabalari, uning mavzusi va mazmunida aks etadi. Yozuvchi va adabiyotshunos Isajon Sulton ijodida ham ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan, necha zamonlar chig'irig'idan o'tgan, ko'pchikning xotirasidan ko'tarilayotgan ko'plab betakror og'zaki ijod namunalarini ko'rishimiz mumkin. Isajon Sulton ijodida xalq og'zaki ijodi namunalarini aka ettirish, folklor unsurlaridan foydalanish, folklor motivlari vositasida qiziqarli syujetlar tanlash adibning o'ziga xosligini belgilaydi. Isajon Sultonning o'ziga xosligi folklorizm bilan zamonaviyliknibirlikda uyg'unlashtira olganligidir. Adib o'zbek adabiyotining nodir durdonalari bo'lmish xalq og'zaki




ijodi namunalariga katta qiziqish bilan qaragan va folklorizmni o'z ijodida ham aks ettirgan. Masalan, folklor janrining tarkibiga kiruvchi tush motivini olsak. Aynan tush motivi Isajon Sulton hikoyalarida ko'proq uchraydi. Bunga misol qilib "Qismat", "Otamga nimadir bo'ldi, "Avliyo" hikoyalairini keltirishning o'zi yetarli. Endi mazkur hikoyalardagi tush mativini tahlil etishdan oldin, folklorizm va motiv haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. Adabiyotda "folklor" va "folklorizm" tushunchalariga diqqat qaratish lozim. Adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqov mazkur ikki atama orasidagi farqni shunday izohlaydi: "Biror ijodkor asariga biror maqsad bilan kiritilgan falklorga xos barcha materialllarni folklor deb emas, balki folklorizm atamasi bilan yuritish lozim, chunki unga ijodkor tomonidan muayyan ishlov berilgan bo'ladi" Adabiyotshunoslikda motiv haqida turli xil qarashlar mavjid. Jumladan, B.Putilov "motiv syujetning mag'zidir" degan ta'rifni bersa taniqli rus olimi A. N. Vaselovskiy "Motivlar birlashib syujet xalqasini yuzaga keltiradi", - deydi. D.Quronov va boshqalar tomonidan tuzilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati"da motiv syujet sxemasi yoki biror bir narsa obraz kabi ko'rinishlarda voqe bo'lishi badiiy asarlarda mavjud motivlar aynan emas, o'zagi saqlanib qolgani holda yozuvchining badiiy fantaziya imkoniyati va ijodiy niyatlaridan kelib chiqib turli variantlarda talqin etilishi aytiladi.

Tush motivi xalq ertaklari va epik janrlarda keng tarqalgan bo'lib, asarning o'zagini tashkil etadi, tush qahramonlarni xavf-xatarlardan ogohlantiradi, ularni safarga chorlaydi, ularning taqdirini va baxtsiz kunlarini belgilaydi.

Isajon Sulton asarlarini tahlil qilishda o'quvchi-yoshlar ta'lim shaklining maktab, o'rta-maxsus va oliy ta'lim darajasidagi tahlil jarayonlari bilan aloqadorlik asosida faoliyat yuritishadi. Bu esa asarlarining ommabop ekanligidan dalolat beradi. Asarlarini yaratilishi jihatidan ularning tahlil qilinishida bosh obraz va ikkinchi darajali obraz munosabatlari ham yuzaga keladi. O'quvchi-yoshlarda tahlil ko'nikmalari turli xil kirish so'zlar, iboralar, xalqona birikmalari va shukabi ifodalar bilan bog'liqlik asosida yuzaga keladi. Tahlil qilish jarayonida ijodkorning bosh g'oya sifatida qarayotgan fikrlari va muallif tilining turli xil obrazlar, vositalar asosida yuzaga keladi. Shunga ko'ra tahlil va malaka usullari prinsiplilik asosida yakdillikni ham ijodiy mahoratning matn bilan aloqador shaklda bo'lishidir.

Shu bilan birga Isajon Sultonning "Do'st" hikoyasini tahlil qilar ekanmiz hikoyada jamiyatdagi faoliyat turlarining anglashilishi xotira tasvirlarning yuzaga kelgan. Isajon Sultonning xarakterli xususiyatlarga ega bo'lgan bir yozuvchi sifati ekanligini ochib beradi. Normurod Norqobilov esa ayni to'g'ridan-to'g'ri kitobxonga ma'lumbir masala yuzasidan muammoli vaziyat



keltirmasada ayni hikoyaning badiiy stil orqali kitobxon qalbida bir fikr va tuyg'ularni shakllantirishga olib keladi. Bu esa asarning o'qilish darajasini ommabop tarzda ko'tarishga yordam beradi." Isajon Sulton yoridan ayrilgan Yusufning boshi oqqan tomonga ketib qolib qishloqqa ko'rinmay qolish holatini xalq og'zaki ijodi qahramoni Majnunning boshiga ishq savdosi tushganida uzoqlarga bosh olib ketgani holatiga yaqinlikda beradi, xalq ijodi asari syujetiga yaqinlashtiradi. Badiiy so'z san'ati taraqqiy etib boruvchi estetik hodisa sifatida tabiat, jamiyat, hayot va inson ruhiy olamining turli murakkab qatlamlariga kirib boradi. Biz bilamizki, adabiyotda zamon ruhi degan tushuncha bor. U har bir zamon kishisini chetlab o'tishi mumkin emas.

Isajon Sulton yana bir tilga tushgan boshqa asarlaridan biri "Boqiy darbadar" romani haqida gapirarkan:

"...Bor-yo'g'i sakson sahifalik kichkinagina shu roman juda uzoq yozildi, men uni taxminan 1998 yilda boshlagan edim. Muqaddas manzillarini, maqsadlarini yo'qotib qo'yib, dunyoda tentirab yurgan odamlar dunyoda ko'pday tuyular, lekin ifoda uchun shakl topolmas edim. Qiziq-da, bir etikdo'z Iso alayhissalomga qo'l ko'tardiyu abadiy yashash degan tavqi la'natga duchor bo'ldi. Barhayotlik ham musibat bo'lishi mumkinligi haqida sira o'ylab ko'rmagan ekanman, vaholanki, sonsiz-sanoqsiz insonlar dunyoda mangu qolish ishtiyoqida yelib-yugurmoqdalar",- degan edi.

Adibning "Boqiy darbadar" kitobiga so'ngso'z yozgan adabiyotshunos Rahimjon Rahmat shunday fikrni o'rtaga tashlaydi: "Isajonni "Boqiy darbadar" asarini yozishga turtki bergan tuyg'u aynan qiyomatni favqulodda kuchli sezish, bu dunyo qadriyatlarining qiyomat degan ulkan tegirmonda yanchilishini ravon va jonli his etishdir. Xuddi mana shu tuyg'u "Boqiy darbadar" asarining dastlabki asosidir. Inson chalayotgan hayot degan kuyda darbadarlik ohanglari ustun ekanligini anglaydi yozuvchi".

Ijod namunalari ko'proq internet sharofati bilan o'zi yashayotgan yurt hududlaridan chetga chiqqan Isajon Sulton hozirda o'quvchilardan eng ko'p xat oladigan adiblardan biri sanaladi.

Uning "Pushtirang maxluqcha" hikoyasini o'qigan Mashhura Sheraliyeva shunday fikrga keladi:

"...O'z qo'llarini yeb bitirayotgan kichkina pushtirang maxluqcha - zulmni tagtomiri bilan yo'qotish istagida yongan, ammo voqelikka ta'sir o'tkazishda ilojisizligini anglab turgan san'atkor... Hikoyani o'qirkanman, pushtirang maxluqchaning qo'shig'ini eshitgandek bo'lmadim, balki haqiqatan ham eshitdim, kuyidagi ohang ham yuragimdan o'tganini his qildim. Kuylash, yozish,



chizish, umuman olganda, ijod - ilojsizlik bag'rida ham imkon izlash degani, bu - ijodkorning qismati".

Amerikada yashayotgan Qunduz Husanboyeva esa adibga iltimos qiladi: "Romaningizni sotib olish imkoniyati yo'q. Bizga o'xshagan musofirlar uchun uning elektron variantini yaratsangiz bo'lardi. Hamma bahramand bo'lardi".

Qunduz Husanboyeva Isajon Sultonning "Ozod" romanini o'qish ishtiyoqida bo'lgan yagona muxlis emas.

"Ozod" faqat o'quvchilar emas, balki adabiyotshunoslar e'tiboriga ham tushdi. Adabiyotshunos Islom Yoqubov fikricha: "Ozod" romani yurak tubidagi po'rtanalardan bahs etadi. Basirat so'qmoqlarida o'z yo'lini topmoq ilinjida sarosar kezayotgan tasavvur orzu, havas, armon, pushaymonlik, hasrat, nadomat kabi turfa tuyg'ular iskanjasida qoladi. Adib inson taqdiri uning Muhabbat va Iymoni darajasiga ko'ra o'zgaradi, - degan xulosaga keladi. Shu ma'noda bu asarni tasavvur va tafakkur romani deyish mumkin".

Adabiyotshunos olim roman qahramonlaridan birining ichki dunyosiga kirib borar ekan, shunday xulosaga keladi: "Ozod zohiran jo'n tuyuluvchi tabiat hodisalarining botinini ko'radi. Oddiy odam eshitishi mahol bo'lgan turfa tovushlarni tinglaydi. Dastlab uning fikru shuurida barcha ajdodlarimiz ham o'z qismatiga peshvoz borishgan emasmidi. Ehtimol, shu bois ham ular tabiatida itoatkorlik, jafokashlik, halimlik, shukronalik, qanoat tuyg'ulari shakllanmadimikin. Kishini ezuvchi mehnatdan qutilish chorasi bormi. Taqdirni o'zgartirish imkonichi. Bag'ri qon qizg'aldoqlaru maysa-ko'katlar nega bahorga talpinishadi. Bu ham ertadan umidvorlik orzusi emasmikin. Bularning barchasida qanday ma'no yashirin. Umuman, odam bolasi dunyoga nima uchun keladi?- qabilidagi savollar shodasi charx uradi".

Adabiyotshunos anglagani kabi "Ozod" romani inson umrining qadri haqida bitilgan.

"Chunki, adib azaldan sharaflangan insonni dunyoviy havaslar to'riga o'ralib qolmaslikka undaydi. Asarda bani odam naslining tarixi va ertasi taftish etilib, bugunning odami, ya'ni zamondoshimiz g'aflat va johiliyatdan yuksalishga chorlanadi. Romandan muboraklik inoyat qilingan zot nafs ilinjidagi turfa evrilishlardan emas, balki iymon barsalomatligidan najot topajak,- degan xulosa chiqariladi".

Professor, adabiyotshunos Abdug'afur Rasulov esa, Isajon Sultonning "Ozod" to'plamidan o'rin olgan hikoyalarini tahlil etar ekan uning tabiat hodisalari, turfa mavjudotlarga ma'no yuklashini yuksak baholaydi:



“Isajon Sulton asarlarida shamol - yozuvchi imkoniyatidagi tunganmas poetik imkoniyat. Yaratilajak timsollar moyasi. Yozuvchi nafaqat shamol, bo‘ron, to‘fonni, o‘rni-o‘rni bilan hashoratu hayvonotni, parranda-yu parqu bulutni, kapalaklar, ninachilarni tasvirlaydi. Ularning har biri ma‘no qati, ramzi sifatida aks eta boshlaydi. Xullas, postmodernistik asarda hamma narsa o‘z o‘rnida betakror timsol vazifasini o‘taydi”.

Isajon Sultonning asarlari keyingi yillarda ingliz, nemis, turk, rus tillariga o‘girildi. Shvetsiyaning adabiy agentlaridan biri - OHO-Press "Boqiy darbadar"ga va "Ozod"ga qiziqish bildirmoqda. Adibning o‘zi esa, hind mutafakkiri Javoharlal Neruning "Hindiston" asarining Boburga bag‘ishlangan qismini, shuningdek, yapon adiblari Ryunoske Akutagava, Yasunari Kavabata, turk adibi Umar Sayfiddin asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

O‘zbek adabiyotida Abu Rayhon Beruniy obrazi talqin qilingan turli janrlardagi yigirmaga yaqin asar mavjud. Bu asarlar qatoriga O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning joriy yilda nashr qilingan "Abu Rayhon Beruniy" romani ham qo‘shildi. Roman alloma obrazi talqin qilingan boshqa asarlarga qaraganda qator jihatlari bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Jumladan, yozuvchi Beruniy davrini to‘laqonli aks ettirishga urinish bilan bir qatorda hazrat Beruniyning hayoti, shaxsiyatini, uning diniy, falsafiy, siyosiy qarashlarini to‘laqonli ochib berishga harakat qilgan.

Qolaversa, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy faoliyati, olib borayotgan tadqiqot ishlari uchun asqotarlik, o‘z qo‘llari bilan yasagan moddalarning solishtirma og‘irliklarini o‘lchovchi asbob, qimmatbaho toshlarning og‘irligini aniqlash uchun nozik tarozi, tutash idishlar qoidasiga asoslangan uskuna, yuqori aniqlikdagi usturlob va armilla kabi har xil hajmdagi asbob-uskunalaridan iborat qo‘l ixtirolari, aniq ilmiy dalillar bilan ilgari surgan aql kashfiyotlarini asarning boshidan to oxiriga qadar goh sharoit taqozosiga ko‘ra voqealar yordamida, goh obrazlar tilidan har xil shaklda ko‘rsatib o‘tadi. "Abu Rayhon yunon olimlarining yer yuzi tuzilishiga oid asarlarini ham o‘qib chiqdi. Qolaversa, uchburchak va to‘g‘ri burchak nazariyasini ham o‘rganib oldi. Qachon qaramay, uni hisob-kitoblar ustida ko‘rardim. Rum usturlobini o‘lchab tekshirib ko‘rgach, temirchi bilan birga, qo‘llari kuya-kuya o‘z usturlobi va armillasini yasadi" Alloma ajdodimizning ilmiy yo‘nalishdagi kashf-u karomatlari, mehnat-u mashaqqatlari shu zayl tasvirlanadi. Bu o‘rinda Fransiyaning sobiq prezidenti Fransua Mitteranning quyidagi gaplari yodimizga tushadi: "G‘arbda "Al-Baron" deb nom olgan Sharqning buyuk mutafakkir olimi Abu Rayhon Beruniyning insoniyat oldida qilgan xizmatlari shu qadar buyukki, uning yoniga boshqa bironta



millatning vakilini qo'yib bo'lmaydi. U fanning barcha sohalarida birinchi edi. Jahon ilm-fan tarixini Abu Rayhon Beruniyning ilmiy ishlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi". Isajon Sulton Abu Rayhon Beruniyning shohlar bilan munosabatiga ham yangicha nigoh bilan nazar soladi. Yozuvchi bu borada o'z salaflariga qaraganda tarixiy haqiqatga to'la yondashishga harakat qiladi. Hazrat Abu Rayhon Beruniy qalamiga mansub bo'lgan, o'zining hasbi holi bayon qilingan quyidagi satrlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning amir-u sultonlar bilan munosabati doimiy ravishda kolliziyali tarzda kechgan deyish noto'g'ri bo'ladi nazarimizda. Beshikdan to qabrgacha ilm izlashning go'zal namunasini o'z hayoti misolida ko'rsatgan daho zotning o'lim to'shagidagi ahvoli Isajon Sulton taqlinida tarixiy haqiqat va badiiy mahorat uyg'unligida tasvirlanganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa

"Alvon bulutlar tomonga uzanib ketgan, ikki cheti, urug'larini sochib yuborgan va kuchli islar taratayotgan, maysalarga to'la tafakkur so'qmog'idan shu tariqa quyosh botayotgan taraflarga ravona bo'lmoqdamiz. Va bir qur alanglaganimizda ko'ramizki, o'zimiz bilan olib ketayotganimiz - faqat ma'nolar ekan, xolos".

Isajon Sulton jurnalistlar bilan bolgan suhbatda quyidagilarga toxtalib otgan: O'rxun-Enasoy yozuvlariga qiziqmagan ziyoli bo'lmasa kerak. Bir kuni uning turkcha va o'zbekcha tabdilini solishtirib o'zimcha o'qib o'tirganimda, u til turkchadan ko'ra bizga yaqinroq ekani, ko'plab so'zlar, "qildimiz", "ko'rdimiz", "ettimiz" degan fe'llar esa ayrim shevalarimizda bugun ham borligi diqqatni jalb qildi. Shunda ayniqsa yoshlarimiz uchun o'qilishi yengil, arab va fors so'zlari aralashmagan, toza turkiy tildagi bir asar yaratish fikri tug'ildi. Buning uchun olimlarimiz, filologiya fanlari doktori, professor Qosimjon Sodiqovdan hamda filologiya fanlari doktori Quadratilla Omonovdan minnatdorman, turkologiyaning bu ikki zabardast mutaxassisi yordamlarini sira ayashmadi. Natijada "Bilga Xoqon" asari bunyodga keldi.

Bugungi kun kishisining ichki dunyosiga nazar solsak, siz aytgan hodisani ko'ramiz. Inson o'zi bilan tarixni, bugunni hamda kelajakni olib yuradi. Haqiqatan ham, bugun kun kechirayotgan bir kishi kim?

Bu o'zi dunyoga kelgan vaqtidan boshlab shu kunigacha bo'lgan voqealarni hamda ota-onasi, yoshi ulug'lar so'zlab bergan tarixlarni biladigan, jamiyat hodisalariga shohid bo'lgan, ijtimoiy vaziyatlarning guvohi bo'layotgan inson. Biroq, uning dunyoqarashi shu bilangina chegaralanib qolmaydi. U o'zi bilim olgan manbalariga qarab Odam Ato yaralganidan tortib jahon urushlarigacha,



Oyni zabt etgan texnologiyalardan tortib aytaylik, yana allaqancha ishlardan xabardor kishi hamda bularning bariga uning o'z shaxsiy munosabati bor. Ba'zilariga to'g'ridan-to'g'ri, ba'zilariga majoziy munosabat bildiradi. Shu sababli, siz tilga olib o'tgan hikoyalarni bugungi kun kishilari dunyoqarashining ayrim jihatlari, desa bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qurbonova F. Isajon Sulton hikoyalarida sharqona rivoyatlar talqini // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2023. – №3. B.91-95. [10.00.00 № 14]
2. Qurbonova F.A. Mifologik tasavvurlar va zamonaviy epik talqin xususida Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar. 2 (6) - 2022 Mart. – B.84-88. [10.00.00 № 34]
3. Qurbonova F.A. Isajon Sulton hikoyalarida folklor an'analari // So'z san'ati xalqaro jurnali. –Toshkent, 2021. 4 jild, 3- son. – B.120-126. [10.00.00 №31]
4. Qurbonova F. "Asarlar zo'rmi-zo'rmasmi, deyaverib charchadik, adabiyot nima bo'lsa ham yashamoqda". Isajon Sulton // O'zbekiston milliy axborot agentligi UzA. Ilm-fan bo'limi. – Toshkent, 2022. 17.01.16.44. <https://uza.uz/posts/338014/> 24.07.2023, 10:21, B.1-8.
5. Kurbanova F.A. Artistic speech is a factor of creating the hero's spirit (on the stories of Isajan Sultan) // Asian journal of multidimensional research (AJMR) <https://www.tarj.in> (A Double Blind Refereed & Peer Reviewed International Journal) ISSN: 2278-4853 Vol 10, Issue 5, May, 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.699 DOI: 10.5958/2278-4853.2021.00361.X [23]
6. Qurbonova F.A. Isajon Sulton hikoyalarida mifologik obrazlarning qo'llanilishi // "Usmon Nosir adabiy merosi va uning ahamiyati" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- Qo'qon, 2022-yil, – B.183-189.
7. Qurbonova F. "Bibi Salima" hikoyasi badiiyati // "Filologiyaning dolzarb masalalari". Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. –Qo'qon, 2020. 25-aprel. – B.109-111.
8. Qurbonova F.A. Isajon Sulton hikoyalarida mumtoz an'analar va folklor motivlari// "Izlanish samaralari" mavzusidagi yosh tilshunos va adabiyotshunoslarning xalqaro ilmiy amaliy anjumani. –Toshkent, 2021. –B. 204-208.
9. Kurbanova F.A. The use of mythological images in the story "Treasure" by Isajan Sultan. // International scientific-practical conference. <https://www.conferenceseries.info/index.php/intellect>. P. 149-153.

